



CERTIFICATE

THIS CERTIFICATE IS AWARDED TO

JUMABAYEVA DILDORA MADAMINOVNA

for his/her outstanding and invaluable contribution
to the international scientific conference
"National Self-Awareness in the Era of Artificial Intelligence:
The Historical Heritage of Turon and Modern Development"

Rector



A.Usmankulov



2026-yil 4-aprel



**UZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
XALQARO TURON FANLAR AKADEMIYASINING
JIZZAX FILIALI
JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI
"IJTIMOIY FANLAR"
KAFEDRASII HAMKORLIKDA**

**"SUN'IY INTELEKT DAVRID A MILLIY O'ZLIKNI
ANGLASH: TURON TARIXIY MEROSI VA
ZAMONAVIY RIVOJLANISH"**
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

**"UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY IN THE
ERA OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
TURAN HISTORICAL HERITAGE AND
MODERN DEVELOPMENT"**
international scientific-practical conference

**«ПОНИМАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В
ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА:
ТУРАНСКОЕ ИСТОРИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ
И СОВРЕМЕННОЕ РАЗВИТИЕ»**
международной научно-практической конференции

**KONFERENSIYA MATERIALLARI
TO'PLAMI
(II - JILD, III - IV SHO'BALAR)**

**2026-YIL
4-APREL**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
XALQARO TURON FANLAR AKADEMIYASINING
JIZZAX FILIALI
JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI
“IJTIMOIY FANLAR”
KAFEDRASI HAMKORLIKDA**



**“SUN’IY INTELLEKT DAVRIDA MILLIY O‘ZLIKNI
ANGLASH: TURON TARIXIY MEROSI VA ZAMONAVIY
RIVOJLANISH”**

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

**"UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY IN THE ERA OF
ARTIFICIAL INTELLIGENCE: TURAN HISTORICAL HERITAGE AND
MODERN DEVELOPMENT"**

international scientific-practical conference

**«ПОНИМАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ЭПОХУ
ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: ТУРАНСКОЕ ИСТОРИЧЕСКОЕ
НАСЛЕДИЕ И СОВРЕМЕННОЕ РАЗВИТИЕ»**

международной научно-практической конференция

**KONFERENSIYA MATERIALLARI
TO‘PLAMI**

(II - JILD, III-IV SHO‘BALAR)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida 2026-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi to‘g‘risida”gi 11-son buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida 2026 yil 4 aprel kuni Jizzax politexnika institutida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

JIZZAX-2026

“SUN’IY INTELLEKT DAVRIDA MILLIY O‘ZLIKNI
ANGLASH: TURON TARIXIY MEROSI VA ZAMONAVIY
RIVOJLANISH” XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASINING ILMIY
MAQOLA VA TEZISLARI TO‘PLAMI.
JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI.
2026- YIL 4 APREL KUNI

Konferensiya materiallari to‘plamida globallasuv davrida sun’iy intellektning milliy o‘zlikni anglash jarayonidagi mazmun-mohiyati, qadimgi Turon tarixining asosiy jihatlari, shu bilan birgalikda fan, ta’lim va ishlab chiqarish jarayonida uning tutgan o‘rni va ro‘li, ushbu jarayonlarning o‘zaro hamkorligi masalalarining dolzarb muammolari, ularning yechimlari borasida sohaning yetuk mutaxassislari tomonidan fikr-mulohazalar taqdim etilgan. Qolaversa, globallasuv davrida ijtimoiy-gumanitar fanlarda olib borilayotgan ilmiy-amaliy mavzudagi tadqiqotlar, ishlab chiqarish sohalaridagi eng yangi innovatsion texnologiyalarni o‘zida jamlagan ilmiy-amaliy sohalardagi ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu to‘plam ilm olamining dolzarb fikrlari va innovatsion g‘oyalarining o‘ziga xos chorrahasidan biri deb fikr bildirish mumkindir. O‘tkazilgan bu ilmiy-amaliy anjumanda O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanayotgan professor-olimlar va ilmiy tadqiqotchilar faol ravishda qatnashdilar. Ilmiy-amaliy konferensiyaning mavqeini yanada oshirishda mahalliy va xorijiy oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari salmoqli hissa qo‘shdilar. Konferensiya ishida faol qatnashgan xorijiy oliy oq‘uv yurtlari professor-o‘qituvchilari mamlakatimiz olimlari bilan o‘zaro fikr almashuv jarayonini yuqori saviyada o‘tishiga o‘zlarining munosib hissasini qo‘shdilar.

Xorijiy davlatlar bilan olib borilgan xalqaro hamkorlik va ular bilan globallasuv davridagi ilm-fan sohasida almashish jarayonlari oliy ta’limda, fan va ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi.

Ushbu konferensiya materiallari nazariy ishlanmalardan tortib amaliy yechimlargacha bo‘lgan keng ko‘lamli tadqiqotlarni o‘z ichiga olishi bilan alohida ajralib turadi, bu esa ushbu sohadagi yondashuv va yo‘nalishlarning xilma-xilligini namoyish etadi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, ushbu ilmiy-amaliy konferensiya globallasuv davrida oliy ta’limni yanada rivojlantirish, fan, ta’lim va ishlab chiqarish sohalaridagi zamonaviy tadqiqotlarga qiziqqan har bir inson uchun ilmiy-amaliy tomondan judayam foydali to‘plam bo‘ladi. To‘plamga kiritilgan maqolalar va tezislari mazmuni hamda sifatiga mualliflar mas’uldir.

Материалы конференции, посвященные эпохе «Пламидской глобализации», сущности процесса понимания искусственного интеллекта, основным аспектам древней туранской цивилизации, а также ее месту и роли в процессе науки, образования и производства, актуальным проблемам взаимодействия этих процессов и их решениям, были представлены ведущими специалистами в данной области. Кроме того, представлены научно-практические исследования, проведенные в социально-гуманитарных науках в эпоху глобализации, информация о научно-практических областях, включающих новейшие инновационные технологии в производственных сферах. Можно сказать, что этот сборник представляет собой уникальное пересечение современных идей и взглядов мирового научного сообщества. В научно-практической конференции активно участвовали профессора-ученые и исследователи, занимающиеся научной деятельностью в Узбекистане и за рубежом.

Значительный вклад в дальнейшее повышение статуса научно-практической конференции внесли преподаватели отечественных и зарубежных университетов. Преподаватели зарубежных университетов, активно участвовавшие в конференции, внесли ценный вклад в обмен идеями высокого уровня с учеными нашей страны.

Международное сотрудничество с зарубежными странами и процессы научного обмена в эпоху глобализации оказывают положительное влияние на развитие высшего образования, науки и производства.

Материалы конференции отличаются тем, что охватывают широкий спектр исследований, от теоретических соображений до практических решений, что демонстрирует разнообразие подходов и направлений в этой области. В заключение следует подчеркнуть, что данная научно-практическая конференция станет полезным сборником с научно-практической точки зрения для всех, кто заинтересован в дальнейшем развитии высшего образования в эпоху глобализации, современных исследованиях в области науки, образования и производства. Авторы несут ответственность за содержание и качество статей и тезисов, включенных в сборник.



The conference materials for the ‘Plamid Globalization’ era, the essence of the process of understanding artificial intelligence, the main aspects of the ancient Turanian civilization, as well as its place and role in the process of science, education and production, the current problems of the interaction of these processes, their solutions, were presented by leading specialists in the field. In addition, scientific and practical research conducted in the social and humanitarian sciences during the globalization era, information on scientific and practical areas that include the latest innovation technologies in production areas, is presented. It can be said that this collection is a unique intersection of current thoughts and ideas of the world of science. Professors-scientists and researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries actively participated in this scientific and practical conference.

Professors-teachers of local and foreign universities made a significant contribution to further enhancing the status of the scientific and practical conference. Professors-teachers of foreign universities who actively participated in the conference made a worthy contribution to the high-level exchange of ideas with scientists of our country.

International cooperation with foreign countries and scientific exchange processes in the era of globalization have a positive impact on the development of higher education, science and production.

The conference materials are distinguished by the fact that they include a wide range of research, from theoretical considerations to practical solutions, which demonstrates the diversity of approaches and directions in this field. In conclusion, it should be emphasized that this scientific and practical conference will be a useful collection from a scientific and practical point of view for everyone interested in the further development of higher education in the era of globalization, modern research in the fields of science, education and production. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.



KONFERENSIYA ISHIDA FAOL HAMKORLIK QILGAN TASHKILOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
2. Boku davlat universiteti (Ozarbayjon)
3. Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universiteti (Qozog‘iston)
4. Xo‘ja Akhmad Yassaviy nomidagi Xalqaro Qozoq-turk universiteti (Qozog‘iston)
5. Sambhram University (Hindiston)
6. Qozoq milliy pedagogika universiteti
7. Al-Farobiy nomidagi Qozog‘iston Milliy Universiteti
8. Ташкентский университет информационных технологий

ОРГАНИЗАЦИИ, АКТИВНО УЧАСТВУЮЩИЕ В РАБОТЕ КОНФЕРЕНЦИИ

1. Министерство высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан
2. Бакинский государственный университет (Азербайджан)
3. Южно-Казахстанский университет им. Мухтара Аvezова (Казахстан)
4. Международный казахстанско-турецкий университет им. Ходжи Ахмада Яссави (Казахстан)
5. Университет Самбрам (Индия)
6. Казахский национальный педагогический университет
7. Казахский национальный университет им. Аль-Фараби
8. Ташкентский университет информационных технологий

ORGANIZATIONS ACTIVELY PARTICIPATING IN THE CONFERENCE

1. Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan
2. Baku State University (Azerbaijan)
3. Mukhtar Avezov South Kazakhstan University (Kazakhstan)
4. Khoja Akhmad Yassavi International Kazakh-Turkish University (Kazakhstan)
5. Sambhram University (India)
6. Kazakh National Pedagogical University
7. Al-Farabi Kazakh National University
8. Tashkent University of Information Technologies

TAKOMILLASHTIRISH (ARNASOY SUV OMBORI MISOLIDA).....	
Ташмуродов Дилмурод, Мирзакобилов Н. ЧИСЛЕННЫЙ АНАЛИЗ КОЛЕБАНИЙ ТРЕХСЛОЙНОЙ КОМПОЗИТНОЙ ПЛАСТИНЫ В СРЕДЕ ANSYS	636
Нурымбетова Жамила Игиликовна. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТРАДИЦИОННОГО КАЗАХСКОГО КОБЫЗА В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ.....	640
M.Q.Berdimuratov, Q.Q.Qidirbaev. KO‘P SENSORLI IoT VA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA FOYDALANUVCHIGA MOS AQILLI XONA MUHITINI BOSHQARISH TIZIMI.....	644
Ibraximova Iroda. LINGUISTIC PERSONALITY AND LINGUISTIC IDENTITY: ARE THEY THE SAME THINGS?.....	645
Nazarov Furqat Daminovich, Yo‘ldasheva Sevinch Bahodir qizi. KIMYO SANOATIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KOMPLEKS ENERGIYA AUDITI TIZIMINI ISHLAB CHIQISH.....	647
Musayev Sharof Mamarajobovich, Tolliboyev Ilyos Ithom oglu. APPLICATION OF THE “HYDROLOSK” SYSTEM IN TECHNICAL SERVICE IN MULTI-STOREY BUILDINGS	652
Jumabayeva Dildora Madaminovna. TALABALARDAGI KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARNING SHAXS XUSUSIYATLARI	654

hydraulic resistance coefficient. This is one of the most complex problems in the mechanics of continuous fluids and gases, and has not yet been fully solved. In addition, the pressure loss can also be determined in laboratory conditions using experimental models.

REFERENCES

1. Ahmedov I.A. Suv xo‘jaligini tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish. – Toshkent: TIQXMMI, 2010.
2. Bakiev M., Majidov I., Nosirov B. Hidrotexnika inshootlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
3. Apakxujayeva T. Suv omborlari gidravlikasi. – Toshkent, 2016.
4. Djalilova A., Abduqodirov M. Kanalizatsiya va oqova suvlarni tozalash tizimlari. – Toshkent: Voris, 2012.
5. Xurramova D.M. Oqova suvlarni tozalash texnologiyalarida innovatsion yondashuvlar. – Ilmiy xabarlar jurnali, 2022.
6. Qodirov M.Y. Shahar suv ta‘minoti tizimlarida gidravlik hisoblash va avtomatlashtirish. – Educational Research in Universal Sciences, 2022.
7. Suyunov A.Sh., Mulkamalova O.O. Hidrotexnika inshootlari va zamonaviy suv tizimlari. – ERUS, 2023.
8. Xolmuminov T.Z. Hidromeliorativ tizimlarda innovatsion rostlovchi inshootlar. – TADQIQOTLAR.UZ, 2024.
9. QMQ 2.04.02-97. Suv ta‘minoti. Tashqi tarmoqlar va inshootlar. – Toshkent.
10. QMQ 2.04.03-97. Kanalizatsiya. Tashqi tarmoqlar va inshootlar. – Toshkent.

TALABALARDAGI KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARNING SHAXS XUSUSIYATLARI

**Urganch innovatsion
universiteti**
Universitet psixologi
Jumabayeva Dildora
Madaminovna

Annotatsiya: Talabalardagi kommunikativ ko‘nikmalarning shaxs xususiyatlari insonning ijtimoiy hayotda samarali va muvaffaqiyatli bo‘lishida muhim omil hisoblanadi. Kommunikativ ko‘nikmalar nafaqat so‘z orqali fikr ifodalash, balki boshqalar bilan muloqot qilish, ularni tinglash, tushunish, hissiy va psixologik jihatdan moslashish kabi ko‘plab elementlarni o‘z ichiga oladi. Bu ko‘nikmalar shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, talabalarning o‘qish jarayonida va shaxs sifatida rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Har bir talaba o‘zining kommunikativ sohadagi salohiyati, hissiy

tajribasi, ijtimoiy qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlari asosida alohida ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Shuning uchun, talabalardagi kommunikativ ko‘nikmalarning shaxs xususiyatlarini to‘liq anglash va baholash pedagogika sohasida muvaffaqiyatli ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun zarurdir. Ushbu tezisda talabalardagi kommunikativ ko‘nikmalarning shaxs xususiyatlari haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: talabalar, shaxs, jamiyat, muloqot, ko‘nikmalarini, ijodiy fikrlash, hurmat, qobiliyatlar, o‘zlashtirish.

Talabalarning shaxsiy xususiyatlari ularning muloqot vaqtida yuzaga keladigan muloqot uslubini, odamlar bilan munosabatini va situatsiyalarga moslashuvchanlik darajasini belgilaydi. Masalan, tashabbuskor va ekstertik shaxslar muloqotda faollik ko‘rsatib, fikr almashishga tezda kirishadi va o‘z fikrlarini ochiq ifoda etishda hech qanday to‘siq sezmaydi. Bunday talabalar uchun guruhdagi faol ishtirok, taqdimotlar, munozaralar va boshqa kommunikativ vazifalar odatiy jarayon hisoblanadi. Ularning kommunikativ ko‘nikmalari ko‘pincha interaktiv ustunlikka ega bo‘lib, ular suhbatni rivojlantirish va ko‘plab odamlar bilan tez va samarali aloqada bo‘lish qobiliyatiga ega. Biroq, bu shaxslar ba‘zan diqqat markazida bo‘lishni xohlaydi va boshqalar fikrini tinglashda sustkashlik qilishi mumkin. Aksincha, ichkarisan izlanuvchi shaxslar muloqotda kamroq faollik ko‘rsatadilar, ular boshqalarni tinglashga ko‘proq e‘tibor qaratadi. Bunday talabalar ko‘pincha o‘z fikrlarini ifoda etishda ehtiyotkor va aniq bo‘lib, nutq madaniyati va til me‘yorlariga ko‘proq ahamiyat berishadi. Ularning kommunikativ ko‘nikmalari ko‘proq tinglash, tahlil qilish va yuzaga kelgan vaziyatni yaxshilab anglashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu shaxslar guruh ichidagi munozaralarda ko‘p gapirmasligi mumkin, biroq ular juda chuqur fikrlaydigan va turli nuqtai nazarlarni hisobga oladigan tinglovchilar sifatida jamiyatda o‘z o‘rniga ega. Ularning muloqot xususiyatlari boshqalarning fikrlarini hurmat qilish va jamoa muhitida muvozanatni saqlashga yordam beradi.[1]

Shaxsning ijtimoiy qobiliyatlari ham kommunikativ ko‘nikmalarning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ba‘zi talabalar tabiatan ijtimoiy jihatdan faol va muammolarga oson moslashadigan bo‘lsa, boshqalari ko‘proq o‘ziga cheklangan va qiyin vaziyatlarda o‘zini tutishda zaiflik ko‘rsatadi. Bu jihat ularning muloqot jarayonidagi o‘zaro ta’sirlarning samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy ko‘nikmalar mukammal rivojlangan talabalar o‘z fikrlarini aniq va ravon ifoda etishu bilan birga, boshqalarning hissiy holatini sezish, moslashish va guruhdagi o‘zaro aloqalarda muvofiqlikni ta’minlashda ham ustunlikka ega bo‘ladilar. Bunday talabalar samarali muloqotda boshqalarga ta’sir o‘tkazish, ularni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash qobiliyatiga ega bo‘ladi. Kommunikativ ko‘nikmalarning shaxsiy jihatlari, shuningdek, talabalar hissiyotlarini boshqarish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Hissiy intellekt, ya’ni o‘z hissiyotlari va boshqalar hissiyotlarini anglash, tushunish, nazorat qilish

va boshqarish qobiliyati muvaffaqiyatli kommunikatsiyaning asosiy shartlaridan biridir. Talabalar o‘z hissiyotlarini boshqara olmasa, stress, qo‘rquv yoki noqulaylik tufayli muloqotda to‘siqlarga duch kelishi mumkin. Shu bois, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda hissiy intellekti rivojlantirishga ham alohida e‘tibor qaratiladi. Hissiy jihatdan barqaror va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalariga ega talaba vaziyatni to‘g‘ri baholay olish, samarali muloqotni amalga oshirish va muammoli vaziyatlardan chiqish yo‘llarini topishda muvaffaqiyatli bo‘ladi.[2]

Bundan tashqari, talabalar shaxsiyatining o‘ziga xos xususiyatlari ularning til madaniyati va muloqot uslubiga ta’sir qiladi. Nutq madaniyati – bu til vositalarini bilish, talaffuz va intonatsiyaga e‘tibor berish, muloqot qoidalari va odob-axloq normalarini hisobga olishdir. Har bir talabaning nutq madaniyati uning umumiy shaxsiy madaniyatining ajralmas qismidir va shu asosda muloqotning qobiliyatli va samarali bo‘lishiga xizmat qiladi. Til madaniyatiga ega talabalar o‘z fikrlarini tushunarli va lo‘nda ifoda eta oladi, tinglovchilar bilan samarali aloqada bo‘lish usullarini biladi. Bu esa ularni professional sohada va jamiyatda muvaffaqiyatga erishishga ko‘maklashadi.[3]

Talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarida shaxsiy tajribalarining o‘rni katta. Har bir talaba o‘z oilasi, do‘stlari, ta’lim muhitidagi munosabatlaridan olingan ijtimoiy tajribalar asosida shakllanadi. Ushbu tajribalar ularning muloqotdagi o‘ziga xosligi, ishonchi, inijligi yoki ochiqlikiga ta’sir qiladi. Muvofiq ijtimoiy muhitda, qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik jarayonda bu ko‘nikmalar yanada rivojlanadi va mukammalroq shaklga kiradi. Shuning uchun pedagoglar va psixologlar talabalarni ijtimoiy jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirish, ularni samarali muloqotga jalb qilish, tabiatini inobatga olgan holda mos pedagogik yondashuvlarni tatbiq etishi lozim. Talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishda motivatsiyaning o‘rni ham beqiyosdir. Talaba muloqot qilishga qanchalik xohish bildirsa, u shunchalik faol ishtirok etadi va bilim olish bilan birga muloqot ko‘nikmalarini osonroq egallaydi. Motivatsiyani qo‘zg‘atish pedagogik jarayonda nutqiy faoliyatga muntazam jalb etish, ijobiy baholash, samarali muloqot natijalarini namoyish etish va shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, o‘quvchilarga o‘z fikrini erkin bildirish imkonini beradigan va muloqot jarayonida yangiliklarni o‘rganishga rag‘batlantiruvchi muhit yaratish zarur.[4]

Talabalarda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonida kommunikativ uslublarning o‘rganilishi muhim ahamiyatga ega. Har bir talaba o‘z shaxsiy uslubiga ega bo‘lib, u kommunikatsiyaning turli shakllarida ko‘rinadi. Masalan, ba’zilar bevosita, ochiq uslubni afzal ko‘rib, o‘z fikrini ochiq-oydin ifoda etadi, boshqalari esa yumshoqroq va noaniqroq yondoshuvni tanlaydi. Pedagogik jarayon talabalarni turli kommunikativ uslublarni bilishga, ularni amalda qo‘llashga va shaxsiy imkoniyatlarini kengaytirishga o‘rgatadi. Bu esa ularning ijtimoiy hayotda va kelajakda professional faoliyatda muvaffaqiyat

qozonishlariga imkon yaratadi. Shuningdek, talabalardagi shaxsiy o‘ziga xosliklar va kommunikativ ko‘nikmalaridan kelib chiqib, guruh muloqotdagi roli alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Ba’zilar rahbarlik qiluvchi, boshqa talabalar bilan bog‘lanishni ta’minlovchi pozitsiyada bo‘lishni afzal ko‘radi, boshqalar esa ko‘proq tinglovchi yoki yordamchi sifatida faol qatnashadi. Ushbu rollar talabaning o‘ziga ishonchi, ijtimoiy ko‘nikmalari va munosabatlarga o‘rganish darajasiga bog‘liq. Guruh muhitida har bir talabaga o‘z rolining shaxsiy xususiyatlariga mos bo‘lishi va bu orqali samarali jamoaviy ish olib borilishi muhimdir. Talabalardagi kommunikativ ko‘nikmalar shuningdek ijtimoiy madaniyat va madaniyatlararo muloqotga qanchalik ochiq bo‘lishiga ham bog‘liq. Zamonaviy jamiyatda talabalar turli millat va madaniyat vakillari bilan muloqot qilish majburiyatiga duch keladi. Ularning shaxsiyati shu muloqot tajribalariga tayangan holda shakllanadi. Madaniyatlararo kommunikatsiya qobiliyati talabalarni o‘zaro hurmat, tushunish va bag‘rikenglikka undaydi, bu esa shaxsiy va ijtimoiy muvozanatni mustahkamlaydi. Shu ma’noda, pedagogik jarayonda madaniyatlararo hissiyotlarni shakllantirish va shaxslarning madaniy o‘zgarishlarga moslashuvi uchun ko‘nikmalarini rivojlantirish katta ahamiyatga ega.[5]

Xulosa

Xulosa qilish mumkin bo‘ladiki, talabalardagi kommunikativ ko‘nikmalarning shaxs xususiyatlari juda murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, ular shaxsning ijtimoiy, psixologik, til va madaniy elementlari bilan chambarchas bog‘langan. Ushbu ko‘nikmalar talabaning butun shaxsiyati, uning ijtimoiy tajribasi, hissiy holati va motivatsiyasi asosida shakllanadi va rivojlanadi. Shu sababdan pedagogik jarayonlarda har bir talabaning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish, individual yondashuvni tanlash va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun mos metod va usullarni qo‘llash muhimdir. Natijada, talabalar nafaqat o‘z fikrini erkin ifoda eta olish, balki boshqalarni tushunish, hurmat qilish va samarali hamkorlik qilish qobiliyatlari bilan jamiyatda faol va muvaffaqiyatli shaxsga aylanadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva, N. Sh. (2018). Pedagoglarning kommunikativ madaniyatini shakllantirishning psixologik asoslari. Pedagogik mahorat, 2(12), 45-52.
2. Azizov, D. M. (2020). Talabalarda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish metodlari. Ilmiy izlanishlar va innovatsiyalar jurnal, 5(3), 33-39.
3. Karimova, L. N. (2019). Pedagogik faoliyatda muloqotning psixologik xususiyatlari. Toshkent pedagogika universiteti ilmiy ishlanmalari, 3(27), 78-84.
4. Mirzayev, S. A. (2021). Talabalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar roli. Zamonaviy ta’lim, 6(45), 101-109.
5. Rasulova, G. B. (2017). Pedagogika talabalarining kommunikasiyadagi

psixologik qobiliyatlari. Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 1(8), 10-16.

6. Tursunov, I. R. (2019). Ijtimoiy psixologik o‘qituvchi-talabalar munosabatlarida kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish. Pedagogik ilmiy tahlil, 4(14), 56-63.